

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



Ro'yatiga e'fandi: № BD 60710100-2.06

2024-yil 08

**ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL QILISH ASOSLARI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 700000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi: 710000 – Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi 60710100 – Kimyoviy texnologiya (noorganik moddalar)
(mutaxassisligi)

Urganch – 2024

Fan/modul kodi IITAB341	O'quv yili 2024-2025	Semester 6	ECTS-Kreditlari 4
Fan/modul turi Tanlov	Haftadagi dars soatlari 4		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Ishlab chiqarishni tashkil qilish asoslari	60	60	120
2. I. Fanning mazmuni O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon, mustaqil davlat sifatida rivojlanmoqda. Respublikamizni iqtisodiy mustaqilligi raxbar, menejer, mutaxassis va ijrochilardan ma'suliyatni talab qiladi. Bu esa ilm-fan va ular asosida shakllangan bilim va ko'nikmalarni muntazam oshirish hamda texnik iqtisodiy bilimlarni puxta o'zlashtirishni talab qiladi. Shuning uchun ham iqtisodiy va boshqaruv bilimlarini o'qitish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Bu borada keyingi yillarda respublikamiz prezidenti Mirziyoyev Shavkat Mirmonovich tomonidan olib borayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida, «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi», 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi «O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvar kuni PF-60-son farmoni hamda «Yangi O'zbekiston Strategiyasi» nomli kitobi chop etildi. Unda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo'yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeiini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol			

<p>jalb etishga katta ahamiyat qaratiladi.</p> <p>Hozirning o'zidayoq O'zbekiston iqtisodiyotida sifati oziq ovqat, qurilish va kimyo sanoati materiallarini ishlab chiqarish muhim o'rinlardan birini egallamoqda. Bu esa sanoatda ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.</p> <p>Ushbu ishchi dasturni yaratishdan asosiy maqsad xam aynan shu dolzarb vazifani ma'lum darajada bajarishga qaratilgandir.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1- Mavzu: Ishlab chiqarishni tashkil qilish asoslari fanining predmeti va vazifalari.</p> <p>Fanning predmeti, obyekt va metodi. Fanning vazifalari. Fanning mazmuni va boshqa fanlar bilan aloqasi.</p> <p>2- Mavzu: Korxonalar – milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini sifatida.</p> <p>Milliy iqtisodiyot rivojlanishida korxonaning o'rni va roli. Korxonalar tuzilmasi va uni belgilovchi omillar. Sanoat korxonalarini ishlab chiqarish tuzilmasi shakllari. Korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasi samaradorligini oshirish yo'llari</p> <p>3- Mavzu: Kichik biznes va xususiy korxonalarni tashkil etish.</p> <p>O'zbekiston respublikasining iqtisodiy ravnagida kichik Biznes va xususiy korxonalarining o'rni. Kichik biznes va xususiy korxonalarni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Biznesni tashkil qilishning asosiy bosqichlari. Kichik va o'rta biznesni tashkil etishda tadbirkorlik g'oyasini (TG') tanlashning umumiy qoidalari</p> <p>4 - Mavzu: Ishlab chiqarish jarayoni va uni tashkil etish asoslari.</p> <p>Ishlab chiqarish jarayoni va uning asosiy elementlari. Ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil qilish tamoiillari. Ishlab chiqarish sikli va uning davomiyligini qisqartirishning iqtisodiy ahamiyati</p> <p>5- Mavzu: Korxonaning ishlab chiqarish strukturasi.</p> <p>Korxonalar tuzilmasi va ishlab chiqarish strukturasi. Korxonaning ishlab chiqarish strukturasi tuzilmasi tashkiliy turlari. Korxonaning ishlab chiqarish strukturasi samaradorligini oshirish yo'llari.</p> <p>6- Mavzu: Asosiy ishlab chiqarishni tashkil etishning oqimli usuli.</p> <p>Korxonalar faoliyatida asosiy ishlab chiqarishning o'rni. Asosiy ishlab chiqarishni takomillashirishning ahamiyati. Asosiy ishlab chiqarishni ratsional tashkil qilish prinsiplari. Ishlab chiqarish turlari va ularning tasnifi</p>

7- Mavzu: Ishlab chiqarishni tashkil etishning partiyali usuli
Ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishning partiyali usuli tavsifi va uning xususiyatlari. Optimal partiya miqdorini aniqlash usullari. Ishlab chiqarishni tashkil etishning partiyali usuli samaradorligi

8- Mavzu: Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni ilmiy-texnik tayyorlashni tashkil etish.

Korxonada strategiyasini hal etishda ishlab chiqarishni ilmiy-texnik tayyorlashning o'rni. Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish mohiyati, ma'nosi va maqsadi. Ishlab chiqarishni konstruktorlik, texnologik va tashkiliy tayyorlash mazmuni.

9- Mavzu: Korxonada asbob uskuna xo'jaligini tashkil etish.
Sanoat korxonalarida asbob uskuna xo'jaligining ahamiyati va vazifalari. Asbob va texnik uskunalarga bo'lgan talabni rejalashtirish tizimi

10- Mavzu: Ta'mirlash xo'jaligini tashkil qilish.
Ta'mirlash xo'jaligini tashkil etish vazifasi, funksiyalari, shakllari. Rejalashtiruvchi ta'mirlash tizimi mohiyati va normativlari.

11- Mavzu: Korxonalarda transport-ombor xo'jaligini tashkil etish.
Transport xo'jaligining korxonada faoliyatida tutgan o'rni. Transport xo'jaligi tashkiliy darajasini tafsillovchi ko'rsatkichlar. Ombor xo'jaligini tashkil etishning asosiy prinsiplari va ularning turlari. Omborxonalarning foydalanadigan maydonini hisoblash.

12- Mavzu: Mahsulot sifatini nazorat qilishni tashkil etish.
Mahsulot sifati va uni oshirishning iqtisodiy ahamiyati. Mahsulot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Korxonalarda texnik nazoratni tashkil etish. Mahsulot sifatini boshqarish muammolari

13- Mavzu: Sanoat korxonalarida mehnatni va ish haqini tashkil etish.
Korxonada mehnatni tashkil qilish mohiyati va ahamiyati. Ish joylarini tashkil etish. Mehnatni ilmiy tashkil etish bo'yicha tadbirlarning chiqish jarayonlarini tashkil qilish

14- Mavzu: Korxonada strategiyasini shakllantirish.
Korxonada strategiyasi va uning turlari. Taktik va strategik rejalarni ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Korxonaning bosh rejasini loyixalashda binolaring joylashuvi.
2. Korxonada uskunalar kiyimati amartizatsiya ajratmasini hisoblash.
3. Korxonada bino va inshootlarni kiyimati va amartizatsiya ajratmasini

hisoblash.

4. Bir ishchini yillik ish vaqti hisoblash.
5. Asosiy va yordamchi ishchilarning sonini hisoblash.
6. Asosiy va yordamchi ishchilarning ish xaki fondini hisoblash.
7. Tsex ustama xarajatlarni hisoblash.
8. Sarflangan xom ashyo elektr energiyasi suv bugi yokilgilarini xajimini hisoblash.
9. Birlik maxsuotning tannarxini hisoblash.
10. Tashkilotning kursatkichlari.

IV. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu fandan laboratoriya mashg'ulotlari namunaviy o'quv rejada ko'rsatilgan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari va ularning ashkiliy-huquqiy asoslari.
2. Kichik biznes va xususiy korxonalarni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari va. biznesni tashkil qilishning asosiy bosqichlari.
3. Kichik biznes va xususiy korxonalarni tashkil etishda tadbirkorlik g'oyasini amalga oshirish imkoniyatlari tahlili.
4. Korxonaning ishlab chiqarish strukturasi samaradorligini oshirish yo'llari
5. Asosiy ishlab chiqarishni takomillashtirishning ahamiyati.
6. Ishlab chiqarish turlari va ularning texnik-iqtisodiy tasnifi
7. Asosiy va yordamchi ishlab chiqarishni tashkil qilish.
8. Ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlashni tashkil qilish.
9. Mehnatni ilmiy tashkil etishning mazmuni va asosiy yo'nalishlari.
10. Korxonalarda ish haqi va ishlovchilar mehnatini rag'batlantirishni tashkil qilish.
11. Ish haqining tarif sistemasi.
12. Biznes-rejani tayyorlash va undan foydalanish.
13. Ishlab chiqarishni texnikaviy rivojlantirish va tashkil qilish.
14. Ishlab chiqarishni tashkil etishning umumiy asoslari.
15. Sanoat korxonalarining iqtisodiyotda tutgan o'rni.
16. Sanoat korxonalarini yordamchi ishlab chiqarishlar va xo'jaliklar ishini tashkil etish.
17. Ixtiro va ratsionalizatorlik faoliyati. Ishlab chiqarishni konstruktorlik tayyorlashni tashkil etish.
18. Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish tamoyillari va usullari.

<p>19. Korxonalarining turlari va tashkiliy-tekhnikaviy tizimi. 20. Ishlab chiqarishda texnikaviy tayyorlashni tashkil etish. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>“Ishlab chiqarishni tashkil qilish va biznes reja” fanini o'zlashtirish jarayonida: Talaba: - ishlab chiqarishni tashkil qilishda ishlab chiqarishdagi xom-ashyo turlarini, ularning xossa va xususiyatlarini bilishi kerak; - ishlab chiqarishni tashkil qilishda ishlab chiqarishdagi asosiy texnologik jarayonlarni boshqara oladi; - ishlab chiqarishni tashkil qilishda ishlab chiqarishning maqbul texnologik sxemasi tanlay oladi; - ushbu sanoatda energiyani tejash, chiqindilardan foydalanish masalalarini o'rganadi; - ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash va uni to'g'ri baxolash yo'llarini bilishi va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - atrof-muxitni zararlamaslik bo'yicha bilim va maxorati egallash malakalariga ega bo'lishi kerak.</p>
<p>4. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: ma'ruzalar; individual topshiriqlar; guruhlarda ishlash; jamo bo'lib ishlash; taqdimotlar tayyorlash; keys-stadiylar tayyorlash.</p>	
<p>5. VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, kichik amaliy masalalarni yecha olish, mustaqil ravishda metodlar, strukturalar yaratish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p>	
<p>6. IX. Asosiy adabiyotlar 1. G.M.Davlyarova, O.N. To'ychiyeva, A.A.Salimov «Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish» Farg'ona-2020 2. Yu.S.Shokirova., E.Y.unusaliyev «Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish» Farg'ona-2009. 3. S.N. Yuldasheva «Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish» Buxoro-2020.</p>	

<p>4. A.A.Ortiqboev va boshqalar. «Sanoat korxonalarini va ishlab chiqarishni tashkil etish» T-2004. Qo'shimcha adabiyotlar. 1. Qo'ldoshev. E., Fayzimatov.N. «Raxbarlik faoliyatini tashkil etish», AndMIni «Milliy istiqbol g'oyasi va O'zbekistonda fan istiqbollari.» Mavzusida o'tkazilgan ilmiy amaliy anjumaning materiallari. 2012 y. 2. Abdullayev Y. «Bozor iqtisodiyoti asoslari» - T. «Mehnat», 2007. 3. Qo'ldoshev.E. «Korxonalar menejmentidan ma'ruzalar matni», AndMIn, 2011 y. Axborot manbalari 1. http://www.texnologiy.ru 2. http://www.ziyounet.uz 3. www.ximik.ru – Ximicheskaya ensiklopediya. 4. http://www.iconstel.net 5. http://dx.doi.org/10.1002%2F14356007.a05_489.pub2</p>	<p>7. Fan dasturi Urganch davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
<p>8. Fan/modul uchun mas'ullar: Xadijiev A.Sh.- UrDU, «Kimyoviy texnologiyalar» kafedra katta o'qituvchisi, t.f.f.d.</p>	
<p>9. Taqrizchilar: Kurambayev Sh.R.- Urganch davlat universiteti «Kimyoviy texnologiyalar» fakulteti dekani, texnika fanlari doktori, dotsent. Fayzullayev N.B.- UrDU Urganch davlat universiteti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasining mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori</p>	

Mazkur o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil 1 -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur o'quv dasturi "Kimyoviy texnologiyalar" kafedrasining 2024 yil 1 -sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Akademik faoliyat va registrator departamenti bo'limi boshlig'i:  G. Matlatipov

Fakulteti dekani:  Kurambayev SH.R.

Kafedra mudiri:  Aitova. SH.K.

Tuzuvchi:  Xadijiev A.SH.